

BOLALARDA AXLOQIY TUSHUNCHALAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

M.V.Xalimova

Andijon Davlat Pedagogika Instituti DSc, prof.

Mo‘minova Shoxsanam Murodjon qizi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti

Pedagogika va Psixologiya ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda axloqiy tushunchalar shakllanishining psixologik xususiyatlari muammosini ilmiy nazariy metodik, ijtimoiy-siyosiy manbaalar asosida o‘rganish, amaliyotdagi mavjud holatni tahlil qilish. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda ahloqiy tushunchalarning bolalardagi psixologik va ijtimoiy axloqiy xususiyatlariga o‘zaro aloqadorlikni aniqlash va asoslash haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: axloqiy ong, axloqiy tasavvur va bilimlar, madaniy xulq-atvor va ijobiy munosabatlarni shakllantirish, axloqiy xis-tuyg‘ular va munosabatlarni rag‘batlantirish, xulq-atvor normalari va qoidalari.

PSYCHOLOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF MORAL VIRTUES IN PRESCHOOL CHILDREN

Annotation : *the article is a study of the problem of psychological features of the formation of moral behaviour in preschool children on the basis of scientific, theoretical, methodological, socio-political sources, analysis of the current situation in practice. It describes how to identify and justify the relationship between the concept of moral behaviour in preschool children and the psychological and social moral characteristics of children.*

Key words: *moral consciousness, moral imagination and knowledge, formation of cultural behaviour and positive attitudes, stimulation of moral feelings and attitudes, norms and rules of behaviour.*

KIRISH

Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta’limdan teng foydalanishini ta’minlash, maktabgacha ta’lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2018-yil 30-sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-3955-son qaroriga muvofiq:

- O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq holda maktabgacha ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;

-maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual,axloqiy,estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

-bolalarning sifatli maktabgacha ta’lim bilan qamrovini oshirish,undan teng foydalanish, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

-maktabgacha ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta’minlash;

-maktabgacha ta’lim tizimiga maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish;

-maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarning sog‘lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishini ta’minlash maqsadida bugungi kunda ta’lim

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

tizimining eng yuqori bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimida yosh avlodni tarbiyalash masalasi ko‘ndalang turadi. Ularning tarbiyasidagi aynan axloqiy xatti-harakatlarini psixologik jihatdan shakllantirish bugunning dolzarb masalasiga aylanib bormoqda.

Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan jamiyatdagi tashqi ta’sirlar yosh avlodning aynan axloqiy xususiyatlariga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatib bormoqda. Natijada bolaning axloqiy sifatlarida o‘zgarish yuzaga kelib, bu holat nafaqat ota-onalarning balki jamiyatning ham muammosiga aylanib ulgurdi.

Demak axloq haqida gap ketganda biz aynan bolaning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan maktabgacha yoshi bolalik davrining katta bir qismini tashkil etadi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyatlari rivojlanadi hamda shaxsiy individual xususiyatlari (shaxsiy fazilatlari) tarkib topa boshlaydi.

Bolada axloqiy tarbiya jarayonida axloqiy xususiyatlar kamolga yetadi. Axloqiy xususiyatlarning rivojlanishi jarayonida eng avvalo ular o‘zlarining boshqalar bilan bo‘ladigan munosabatlarini ongli tushuna boshlaydilar, tengdoshlari va kattalar bilan bo‘ladigan munosabatlarida axloq saboqlari rivojlana boradi. Psixologik tadqiqotlar natijalarining ko‘rsatishicha, maktabgacha tarbiya yoshidagi davr bolaning ma’naviy-axloqiy shakllanishida eng muxim davr hisoblanadi. Aynan shu davrdan boshlab ma’lum maqsadga qaratilgan ta’lim-tarbiya ta’sirida shaxsning axloqiy sifatleri shakllana boshlaydi.

Bundan tashqari bolaning maktabgacha yoshidagi davri shu qadar mazmundor va faol davrdirki, bu davr bolaning kelgusi o‘zishida albatta o‘z aksini qoldiradi. Shuning uchun maktabgacha yoshidagi davr ta’sir o‘tkazish kuchi jihatidan g‘oyat mas’uliyatlidir.

Bola bog‘cha yoshiga yetgach, uning psixik taraqqiyotida jiddiy o‘zgarishlar yuzaga keladi. Chunki, xuddi ana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati anchagina kengayib boradi. Maktabgacha yoshidagi bola mustaqil faoliyatda bo‘la olishi uchun zarur bo‘lgan ikkita qudratli kuchga ega. Birinchidan ma’lum darajada o‘ziga bo‘ysundirilgan harakat apparatiga, ikkinchidan esa, atrofidagi katta odamlar va o‘z tengdoshlari bilan bir qator erkin munosabatda bo‘la oladigan nutqqa ega.

Mana shuning uchun bu yoshdagi bolalarning xulq-atvorlari, axloqiy sifatleri, xatti-harakatlari, qiziqish va ehtiyojlari ilk yoshdagi bolalarnikidan keskin farq qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, ilk yoshdagi bolalar bilan maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga ham turlicha munosabatda bo‘lishni taqozo qiladi.

Maktabgacha yoshdagi davrda muhit bilan bo‘lgan munosabatlarida anchagina o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bir tomondan, bola kattalarning doimiy yordamlaridan ancha ozod bo‘lib, ulardan bir qancha uzoqlashadi, ikkinchi tomondan, kattalar bilan bo‘lgan munosabatlari murakkab, ko‘p tomonlama xarakter kasb eta boshlaydi.

Maktabgacha yoshi – bu bolaning atrofida dunyoni faol o‘rganadigan davr. Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘zlarining psixologik rivojlanish xususiyatlariga ega. Yurish boshlanganida, bola juda ko‘p kashfiyotlar qiladi, xonada, ko‘chada, bolalar bog‘chasida joylashgan narsalar bilan tanishadi. Turli narsalarni yig‘ish, ularni o‘rganish, mavzudan kelib chiqqan tovushlarni tinglash, bu obektning qaysi fazilatlari va xususiyatlari borligini biladi. Ushbu davrda bolaning figurativ va effektiv fikrlash shakllari yaratilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy qobiliyatlarining rivojlanishiga ijtimoiy omillarning: oila, bog‘cha va jamiyatning ta’siri ko‘plab olimlar tomonidan yoritilganligiga qaramasdan, bu muammoning psixologik nuqtai nazaridan hali ishlamagan muayyan qirralari mavjuddir.

5-6 yoshligida bola, shimgich kabi, barcha ma’lumotlarni so‘radi. Olimlar ushbu yoshlik davrida bolaning bu ma’lumotni esga olishini, bundan keyin u hayotda hech qachon eslamasligini isbotladi. Bola ufqlarini kengaytira oladigan har qanday narsaga qiziqish uyg‘otadigan davrdir va bu uning atrofidagi dunyoni qollab quvvatlaydi.

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda rag‘batlantirish ular bajarayotgan ishlarning harakteri va yosh xususiyatlari bilan belgilanadi. Masalan, kichik yoshdagi o‘quvchilar o‘qituvchining maqtoviga juda sezgir bo‘ladilar. Ularning emotsional qo‘zg‘aluvchanligi, tafakkurning obrazlilikini rag‘batlantirishdan foydalanishda ko‘rsatmalilik va oshkoralik bo‘lishini talab etadi.

Rag‘batlantirish o‘quvchilarning ishlari va xatti-xarakatlarini ijobiy baholash, ularning ma’naviy qanoat hosil qilishga imkon beruvchi muvaffaqiyatlari va erishgan yutuqlarini tan olishdir. Rag‘batlantirish o‘quvchi shaxsini xurmat qilishga asoslanadi va insoniy qadr- qimmat xissini tarbiyalashga qaratilgan bo‘ladi. U ijobiy sifatlarining mustahkamlanishiga yordam beradi.

Umuman olganda, maktabgacha yoshdagi yoshlar xotirjamlik hissi bilan ajralib turadi. Ularning kichik sabablarga ko‘ra ziddiyatlari va kuchli affektiv epizootiyalari yo‘q. Biroq, bu bolaning hissiy hayotining to‘yinganligi pasayadi degani emas.

Ushbu fikrlardan kelib chiqib kichik maktab o‘quvchilarida ota-ona, o‘qituvchi tomonidan bildirilgan qanday maqtov so‘zlari unga yoqishi hamda shu maqtov so‘zlari yordamida aktiv faoliyat ko‘rsatishi mumkinligini tajriba sifatida o‘rganish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A “Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” Toshkent, “O‘zbekiston”, 1997y .283b.
2. lex.uz/news/president-2030-yilgacha-maktabgacha-ta'lim-tizimini-rivojlantirish-bo'yicha-3326-sonly-qo'shma-qarori.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi S.H.Jalilova, S.M.Aripova “Faylasuflar” nashriyoti Toshkent-2013 yil.
4. Karimov I.A “Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” Toshkent, “O‘zbekiston”, 1997y .283b.
5. [lex.uz/news/president Joint Resolution No 3326 on the Development of the Pre-School Education System for 2030](http://lex.uz/news/president-joint-resolution-no-3326-on-the-development-of-the-pre-school-education-system-for-2030).
6. Psychology of preschool children S.H.Jalilova, S.M. Aripova “Philosophers” Publishing House Tashkent-2013

Recources of the internet

1. www.ziyonet.uz
2. www.gender.uz
3. www.pedagog.uz
4. www.psycholog.uz